Anemon Muş Alparslan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi 2020 8(6) 1855–1861

Journal of Social Sciences of Mus Alparslan University

anemon

Derginin ana sayfası: http://dergipark.gov.tr/anemon

Araştırma Makalesi ● Research Article

Dilthey'de Tarih ve Anlam

History and Meanıng in Dilthey

Diltheyda Tarix va Ma'no

Kasim Müminoğlu [a,*]

[a] Doç. Dr. Muş Alparslan Üniversitesi, Fen Edebiyat Fakültesi, Felsefe Bölümü, 49100, Muş/Türkiye
ORCID: 0000-0001-6649-4144

MAKALE BİLGİSİ

Makale Geçmişi:
Başvuru tarihi: 24 Temmuz 2020
Düzeltme tarihi: 17 Ekim 2020
Kabul tarihi: 21 Ekim 2020

Anahtar Kelimeler:
Diltey, tarih, akıl,
tarihsellik, anlam,
hermeneutik

ÖZ

Dilthey'in düşüncesinde tarihi yaşamın ana unsurları olarak, din, sanat, bilim ve medeniyet, insanın bu dünyada nasıl bir varlık olduğunu gösteren en önemli amillerdir. Dilthey'in tarih felsefesinde transandantal değişim bu şekilde meydana gelmektedir. Bu makalede, tarih konusuna anlam metodu ile yaklaşmakla birlikte tin bilimlerinde anlamayı sadece bir metot olarak değil aynı zamanda "Varlık" alanını kuşatan bir hareket olarak ele almış olan Dilthey'in felsefi düşüncesine aydınlık getirmeyi amaçlıyoruz. Bu amacı gerçekleştirmek için Dilthey'in tarih, tarihsellik, tarihsel akıl, ruhsal yaşam gibi düşüncelerine ve bütün bunlar sayesinde onu anlam metoduna getirmiş olan tartışmalara yer vermeyi düşünüyoruz.

ARTICLEINFO

Article history:
Received 24 July 2020
Received in revised form 17 October 2020
Accepted 21 October 2020

Keywords:
Diltey, history,
intellect, historicity,
understanding, hermeneutics

ABSTRACT

In Diltey's understanding, the higher conditions of historical life, systems such as religion, art, knowledge, and culture, were considered to be the factors that determine how man exists in this world. The transcendental transformation in Diltey's philosophy of life takes place in this state. This article aims to clarify the philosophical views of Diltey, who, while approaching the issue of history with a style of meaning, not only as a method of understanding the topics of psychology, but also as an action surrounding the realm of Being. To achieve this goal, we focus on Diltey's concepts of history, historiography, historical reason, spiritual life, and his methodological considerations on the style of meaning.

MAQOLA HAQİDA

Maqola tarixi:
Ariza berish tarihi:
Tuzatish tarihi:
Qabul tarihi:

Kalit so'zlar:
Diltey, tarix, aql,
tarixiylik, tushunish,
germenevtika

ANNOTATSİYA

Diltey'ning tushunchasida tarixiy hayotning yuqori qo'shinlari, din, san'at, bilim va madaniyat kabi tizimlar bo'lib insonning bu dunyoda qanday mavjudot bo'lganligini ta'minlaydigon omillar bo'lib sanaladı. Diltey'ning hayot falsafasidagi transendental transformatsiya mazkur xolatda yuzaga kelmoqdadir. Bu maqolada, tarix masalasiga ma'no uslubi bilan yaqinlashish bilan birga ruhshunoslik bilimining mavzularida tushunishni faqatgina bir uslub o'laroq emas ayni payitta "Borlıq" soxasini qurshab olgan bir harakat o'laroq qo'lga olgan Diltey'ning falsafi fikirlariga aniqlik kiritish maqsad qilingan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Diltey'ning tarix, tarixiylik, tarixiy aql, ma'naviy hayot, kabi tushunchalariga va ma'no uslubi ustida olib borgan metodik muloxazalariga e'tibor qaratamiz.

1. Kırısh

Borliqning o'tmiş deb atalgan tomoni aksar odamlar uchun ahamiyatsiz ekanligini guvohi bolishimiz mumkin. Xolbuki Diltey o'tmişning bu tomonini oldingi saflarga o'tkazib hayotimizning ma'nosini va xokimiyatini shundan kelib chiqishini bildirgan. Bu ilk ko'z qarashda garip ko'rinishi mumkin, ammo yahshilab olib qaralganda madaniyati yuqori bo'lgan millatlar va o'lkalarda kelacagi

* Sorumlu yazar/*Corresponding author.*
e-posta: k.mominov@alparslan.edu.tr

e-ISSN: 2149-4622. © 2013-2020 Muş Alparslan Üniversitesi. TÜBİTAK ULAKBİM DergiPark ev sahipliğinde. Her hakkı saklıdır.
http://dx.doi.org/10.18506/anemon.773477

ajralmas bog'lar bilan o'z o'tmishiga bog'liq ekanligi malum. Gyote, Leybnits, F. Ast, C. Wolf va Xegel kabi mashhur Faylasuflar o'z madaniytlarining o'tmişi tomonidan yaratilgan samaralardir. Diltey'ga ko'ra tarixiy sadorat inson borlig'ining asli vazifası bo'lib insoniyating olamdagi borlig'ini tamom etkan va bundan bir kul yaratgan tarih bo'lib xesoblanadı. Boshqacha qilib aytganda tarix "ruh va madaniyat qiymatini vucutlashtirip ularni icro etgan hayot tarkiblarining jami.." bo'lib sanaladi (Dithey, 2004: 10). Diltey'ning nazariyotiga ko'ra, inson xaqiqi mohiyati etibori ila tarixiydir. İnsonning bu tarixiy ekanligi nazariyası Diltey'ning juda xam muhim kaşiyoti bo'lib sanaladi. Buning natijalari esa 20. asr Germanya flsafasining shuurini quvvatli bir darajada yoqori ko'targan. Germenevtika soxasida Diltey, Heidegger, Gadamer, Habermas kabi yana ko'plagan mutafakkirlarning ijodlari ana shu yolda o'z izlanishlarini davom ettirgan/ettirmoqdadir.

Diltey o'z ijodlarida yangi izlanishlarni boshlatabilgan mutaffkirlardan biri bo'lgan. Diltey bu izlanishlarini quyidagi asarlarida aks ettirgan. "İnson Bilimlariga Kirish; Omma va Tarih Qidiruvlarining Asoslari" 1883 yilida "İnson Bilimlaridan Olamning Tarihini Aniqlash" 1900 yilida chop etilgan. Keyinchalik boshqa asarlari esa talabalari tomonidan chop qilindi va 22 to'mlik asar yuzaga chiqdi. Diltey ustozi Schleiermacher'nin germenevtika ilimidagi onglamoq, tushunuv masalasini tarixiy jarayon problemasi shaklida qaradi. Diltey Qant'chi bir fikir insoni edi. Faqat uni Yangi Qantchilardan ajratgan masala, tabiat bilimlari va ruh bilimlari ayrimasini markazga olish bilan birga Qant'ning amalga oshirolmagan bilim metafizikasini, germenevtika tushunchasini markazga olib metodik ravishta ruh bilimlari shaklida ishlap chiqqanligida yotmoqdadir (Muminoğlu, 2018: 834-835).

2. Muhokama va Natıjalar

2.1. Dilteyda Tarix va Tinbilim O'rtasidagi Munosabatlar

Doğan Özlem'ning W. Diltey'ning "Germenevtika va Tin Bilimlari" asarining tarjumasida muqaddima taqdimida qayd qilgani kabi "Diltey juda xam bilgi (bilim) ma'lumotlariga boy bir tarixchi, xususan madaniyt tarixchisi, bilim va san'at tanqidchiligida bir daho" bo'lib tanilgan bo'lsa xam uning falsafa ustida yurutgan favqulodda ilmi mulohazalari o'z vaqtida anglashilmagan (Diltey, 2011: 6). Diltey bilimlarga tartıb va anıqlik kiritabilishning yo'li bormi yoki yo'qmi? Bunga bir zamin bormi? Bir tarixchining, iqtisodiyotchining borgan natijalari, bir xuquqchining ishlatgan teriminlarning ostida yotgan bog'lamni belgilash mumkin mi? Butun bularning orqasidagi maqsadni izlaganmızda metafizik terminlarning ichiga olib kirilgan bir tarix falsafasi bo'lishi mumkin mi? Bu kabi savollarga javob aqtarib, Tarixshunoslik maktabining bu borada o'rnatgan mustaqil tizimlariga ishorat qilish bilan birga o'zining izlagan metodlarida tin bilimlarining mustaqil usul o'rnatabilishining imkoniyati xaqida ish olib borgan. Bu yo'nalishda bo'lsa Diltey Lokk, Xum va Qant'ning oit bo'lgan epistemologist maktabning ulashgan darajasiga yetgan, xatto bu maktabning bilgan shahs (subyekt) masalasida biron bir muvofaqiyatga erisha olmaganligini Diltey'ning o'zi ifoda qilmoqda (2011: 13). Diltey'ni qiziqtirgan narsalar tarixiy va psixologik xususiyatlarga ega bolgan insonlar bilan bog'liq. Chunki Diltey'ga ko'ra insonning xar turli hislari va rejalashtirgan ishlari, nimaga intilishi, bilim va tushunchalari nuqtai nazaridan dunyo bilan bog'liq barcha narslarni idrok etabilishi, bizga inson xaqida zamonaviy mavhum ilmiy fikrning har bir elementi, masalan eksperimentlar, tilshunoslik var tarixshunoslik kabi usullar bilan tadqiq etabilish imkoniyati beradi. Darhaqiqat bu butunlik tarix va til tadqiqotlari bilan ajralib turadigon yaxlitliktir. Diltey tin bilimining butun bilimlar orasidagi bu munosabatni qurabilish quvvatiga ega ekanligini bildirmoqda kim, tin bilimlari bilgan shahsh (subyekt) masalasida epistomologist maktablarning erishaolmagan darajasining eshiklarini ochmoqdadir.

Unga ko'ra tarih va omma, soxasi ampirik metodlar bilan amalga oshiriladian soha emas. Bu masala farq etish masalasi emas tushinish, onglash masalasidir. Diltey'ning tin (ruh) bilimlari o'laroq asos solgan soha, insonga tegishli dunyoni onglashni maqsad olmoqda. Ma'no Diltey'ning tushunchasida manaviy hayot jarayonidagi butun va qisimlar orasidagi munosabatlar tarkibida joylashmoqdadir. Bedeutung (ma'no) Versttehen (onglamoq) so'zlari

tushunmoq uchun harakat qilgan narsadir (Bilen, 2007: 86; Bolnow, 2003: 97). Demak, sarxlamoq, sobitlashkan bir ifodaning ananaviy muhitda obyektif bir ravishda tushinishi istagi bo'lsa kerak. Diltey bu holatni shu shakilda bayon etadi: "(…) tushunabiluv, hayotning sobitlashgan ko'rinishlarining mavjudiyatiga yonalmog'lik bo'lib bizlar bularga xar doim qayta olabilsak, yahsi yolda ishlatilip, kontrol qilnabilsa, bir obyektif darajaga chikishlik va tog'ri bir metodga ega bolish mumkin. Uzuluksiz o'laroq sobitlashgan hayot ko'rinishlariga ochilish yoki sharxlamoq nomini berurmiz… Bu sababladir kim, tushunabiluv san'ati, o'z markaz no'ktasini, insonning bor bolishining yozuvga otgan qolitlarining ochiqlanishi vayo sharxlanishinda topadi" (Diltey, 1999: 88-89). Diltey'ning falsafiy tushunchasida insonning tushunushini mumkin qilgan narsa "yashamoq istagi va ifodalari" o'laroq o'z ifodasini topadı. Diltey bu ifodalarni ishlab chiqayotgan chog'da bularni sinflarga ajratmoqdadir (Diltey, 1986: 153) Bular, terimlar, xukumlar va tushuncha liboslari deb ataladi. Bilen bu sinflarni uch davrga ajratib qaramoqda. Bilen'ga ko'ra Diltey avvalo psixologiya bilmini, gumanitar bilimlarni tuhsunib yetmoq uchun bir metod sifatida rivojlantirishni hohlagan. Bu davrlarda Diltey ta'riflovchi psixalogiyani rivojlantirishla aloqali asarlar yozgan. İkinci davrda bo'lsa "tarixni" hayot falsafasining asosi sifatida ko'ra boshlagani guvohi bolamiz. Shunday qilib tabiat butun sag'in, fanni bilimlarinin soxasi esa tarih ham inson bilimlarining soxasi qatorida qaralishi kerak. Uchunchi davrada esa germenevtikaga tayangan xolda gumanitar bilimlaridagi metodikalik problemani hal qilishni hohlagan. Diltey'nin tushunchasiga ko'ra "hayot yoli davomida borilgan xar bir dam, mavjut payitni tashkil qiladi va tarkibi xaqiqat bilan toltirilgan zamon, bu o'tmishning xotirasining tasiridan mustaqil bir ravishda bor bo'lolmaydi" (Tatar, 2016: 107). Shuning uchun xam Diltey bir asarni o'qib sharxlagan o'quvchi bilan matnning orasidagi masofaning yol ochgan zamon farqining tarix ustu bo'lishi bir qancha shubhalarni bartaraf qilish uchun yuqoridagi uch metodika vositasini

amalga kiritgan. Diltey'ning gumanitar fanlardagi bu problemalarga metodikalik yondashuviga tasir korsatgan tushuncha J. S. Mill'ning 1843 yilida chop qilingan A System of Logic (Mantq Sistemasi) nomli asarining "Axloq Bilimlarining Mantig'ié sarlovxali to'rtinchi qismi bo'lgan (Bilen, 2007: 89).

2.2. Dilteyda Nazariy Bilish va Amaliy Hayot O'rtadasidagi Munosabatlar

Diltey ustozi Shleermaxerdan songra qalamga olgan "Germenevtikaning Tug'ilishi" asarida "Germenevtika" bilimining ming yildan ko'p qilib kelgan farqli maqsaddagi xizmatlarining muhimligiga ishorat etgan. Shuning bilan birga XIX. asrning choyrak qismidan boshlab zamonaviy tabiyat bilimining rivojlanishi va "bilim" tushunchasiga berilgan yangi bir o'rınning berilishi bilan birga "tushuncha" konseptsiyasining o'zi falsafi problemaga aylangan. Diltey ilk bor bu problemaning asil tamallarini yana bir bor "yangi inklyuziv shakl" ichida joy olmog'ligi qaysil sabaplarga tayanmoqda ekanligi mavzusuda ish olib bordi.

Diltey falsafasining markazida bilish, harakat qilish tushunchasi yotmoqda. Dilteyga ko'ra falsafa metafizikaning hukumronligida bilgan va harakat qilgan ong butunligini, aslida bu ong butunligi ichida bir biriga qarama qarshi ko'rilmaydigon narslalar zidlik ichinda olib ko'rsatilganligi tufayli insonning bilish fiilining tamallantirilishida "sog'lom nukta"topolmagan. Holbuki Dilteyga ko'ra huddi shu bilgan va harakat qilgan ong butunligi soyasida, "nazari va amali bilimlar orasidagi ishlangan noto'g'ri ajratishning oldini olish mumkin. Yana tabiyat bilimlarining tin bilimlari bilan bo'lgan to'g'ri munosabati tamallantirlgan bo'ladi.

Dilteyni bu tushunchaga olib borgan narsa XIX. Asrning ikkinchi chıragidagi Qantning tushunchalaridan harakat qilgan holda Yangi Qantchi oqimining praktik bilimni rivojlantirishga kirishganliklari bo'lgan. Qantning aql kritikasi, tabiyat bilimining terminlariga faraz qilingan bilgi qiymatga ega ekanligi vositasi sifatida talqin qilinishiga to'sqinlik qilmagan. Lakin Xumning tajribajiligi ong voqealarining birligi va ketma-ketligida Komte va Mill pozitivist falsafalarining qonuniyligini o'rganishdan iborat edi. Shunday qilib (to'liq) huquqshunoslik nomi ostida o'zini bilish harakati odatiy va ma'nosiz bo'lib chiqdi. Diltey ushbu nuktadan harakat qilayotgan jarayonda bilim nazariyasida xolat bu edi(Riedel, 2003: 76). Tabiyat bilimidagi pozivist nazariya harqanday "tushunabilish", "man'no" berebilish harakatini tashqarida tashlamoqda edi. Diltey bu tavirga qarshi "ma'no" berish "tushunabilish" harakatini nazari bilgi va amali hayot munosabatini qurgan holatda hal qilmoqda. Diltey uchun tin bilimlarining yak epistemologiyasini rivojlantirish kabi shuphali bir vazifa bu yerda yoq. Aslida asos masala butun bilimlarda bor bolgan tajriba va bilgining falsafa uchun vazifalanish qiymatiga va falsafa tomonidan tamallantirilgan inson aqlining aftonomiyasiga mukammallik qazontirmoqdir. Dilteyning "ma'no" berish "tushunish" reaksiyasi boshqacha qilib aytganda tabiyat bilimlarining asosan tashqarida qoltirgan subyektning praksis soxasi, yani subyektning mustaqilligi nafaqat tin bilimlari qolaversa tabiyat bilimlarining ham tamalida tabii o'laraoq mavjud ekanligini ko'rsatadi. Diltey bunga "yashamoqlik" ismini bermoqda. Yashamoqlik o'z-o'zidanlikka sohib bolib, yashamoqlikni o'zi butun bilish faoliyatining o'zidan kelib chiqqanligi uchun butun bilishning tamalida yo'tgan narsaga aylanadi. İnson o'z nazari bilgisini amali hayotga aylantirabilganidagina bu munsabatning o'z o'rnini topkanligi xaqida gapirishimiz mumkin. Diltey Qantni tushunmoqlik quroli va bilgi subyektini dogmatiklashtirmoqda ekanligi borasida uni tanqid qilgan.

Dilteyning tushunchasida tashqi dunyoning borligi shubhasini yo'q qilish uchun, Kartesian uslubidagi xudoni isbotlash yoki Kantning "mendagi tashqarida yalang'och, ammo empirik ravishda aniqlangan kosmik jismlarning mavjudligini" sanashning hojati yo'q. Dilteyning "yashamoq" degan konseptsiyasi aslida insonning bir butun hayotini o'rab turgan hayot tajribasining nafaqat sıradanligi bilan bog'liq aynı zamonda insonning hayotida joy olgan butun bilimlarning, inson hayotiga bergan bilgilarning hayot tajribasida o'z o'rnini topishi bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda nazariyaning praktika (yani hayot tajribasi) bilan bo'lgan munosabatining oydinlikka, xaqiqiy jarayonga aylanishidadir.

Diltey bu borada esa Qant va Fichtening bilgi subyektni faqatgina subyketning zihiniyligi bilan chegaralanganligini bildirip, bu shakilda ongning tarkibi esa faqatgina obyektga aylantirish bilan birga bu obyekt, zihinning o'zi, nima bo'lganligi majhul bir narsa sifatida, o'z o'zini anglashning qarshisiga chiqarganligini aytip bu nuktadan ularni tanqid qilgan. Gegelning ham bu nuktadagi nazaryasi Dilteyga ko'ra bulardan ortta emas. Gegel tushunmoq faoliyatinining cheksiz tizimini mutloq refleksiya harakati ichida tashish va dunyo-tushunchasi ila o'z o'zini anglash, tushunmoqlikning o'zini bilishishga bog'lamoq bilan birga problemaning tugun nuqtasini cho'zabilganligini gumon qildi. Faqat bu bir cho'zim emasti Diltey tushunmoqlikni sof ideal nazari bog'lanti sifatida olishning tog'ri emasligini tanqid qilib, "unga qanday murojaat qilish kerakligini ko'rsatadigan nuqta berilishi kerak edi. Bu vaqtda ongning mazmuni va ong harakatining o'zi ong uchun bir xil emas."

Diltey bu "nuqta" ni turli xil "tajribalarda" topadi. "Tajribalar" allaqachon o'z ichidagi ob'ektga bog'lanishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, Qant muammosi, ya'ni ko'z oldida turgan ko'pchilikka o'z ongi bilan berilishi mumkin bo'lmagan ong uchun sintetik birlik qanday yuzaga keladi. Aql - bu tajribaning elementar birligi ichidagi sub'ekt-ob'ekt identifikatsiyasi uslubidir, va sintez qoidalari faqat ushbu identifikatordan olib tashlanishi mumkin. Ammo bu ajratish Fichtening mutlaq o'zini yoki Gegelning fikrlashning mutlaq aksini emas, balki hayotning nisbiy pozitsiyalarini kuzatish va ularni nisbiy qiladigan tushunish jarayonida fikrlash orqali amalga oshirilishi kerak (Riedel, 2003: 88).

Bilish bu o'z-o'zini anglash (Innewerden) va potentsial o'z-o'zini aks ettirishga asoslangan (Selbstbesinnung) talqin qiluvchi va o'zini o'zi talqin qiladigan amaliyotdir. Bilish ijtimoiy-tarixiy relef kontekstida joylashtirilgan, chunki Diltey uchun u hech qachon nafaqat epistemik, balki

printsipial jihatdan amaliydir. Dilteyni ontologik germenevtika va subyektivizm va relativizm tarafdorlari tomonidan transsendental falsafa va mantiqiy pozitivizm tarafdorlari ayblashsa-da, men u Besinnungga empirik ravishda "his qilish" (Sinn) ma'nosini anglatuvchi deb ishonaman.

Diltey Erlebnis va Besinnungning tafakkuri, tirik kontekstual-tajriba va izohli aks ettirish, o'zgargan, ammo zamonaviy falsafaning epistemologik va tanqidiy merosi bilan barcha aloqalarni uzmagan, chunki Diltey rad etish o'rniga uni qayta izohlagan.

Dilteyga ko'ra "tarixiy hayotning konteksti" birinchidan o'zaro bog'liq va tez-tez o'zaro qarama-qarshi bo'lgan amaliyotlardan iborat bo'lib, farqlashning har xil shakllari va farqlash, ijtimoiylashuv va individuallikka imkon beradi, va ikinchidan bu aloqaga o'tish joyi sifatida ishlaydi. Gumanitar fanlar haqidagi falsafiy mulohazalar ikkinchisini ta'qib qilar ekan, gumanitar fanlar yakka va umuman oldingi aloqalarini bir yoki bir nechta aniq shakllarida tadqiq qiladilar. Bunga tarix va jamiyatning jarayonlari va tuzilmalarining, shuningdek, insonning ushbu jarayonlar va tuzilmalar doirasida sodir bo'ladigan xatti-harakatlari va hodisalarining o'zaro bog'liqliklari va farqlari kiradi. Tarixiy hayot - bu xabardorlik va oshkoralikda ochib berilgan aks ettirilgan tuzilmalar va hodisalarning, tizimlar va harakatlarning, guruhlar va shaxslarning murakkab va tabaqalangan o'zaro aloqasini ko'rsatadi. Bu esa Diltey tushunchasida tushunish va sharhlash, aks ettirish va empirik-nazariy tadqiqotlar bilan shug'ullanishtir (Nelson, 2008: 106).

Tabiiy fanlar kabi ob'ektivlik, universallik va haqiqiylikka intilishta bu maqsad va uning vazifalari gumanitar fanlar amaliyotidan ajralib turadi. Gumanitar fanlardagi ob'ektivlik qiymat neytral va matematik-deduktiv modelga unchalik ahamiyat bermaydi jismoniy ob'ektlar kabi, bu hayotiy tajribalarni ularga xabar beradigan ijtimoiy-tarixiy tuzilmalar bilan bog'lashda. Tasodifiy va lahzali normalar bilan bog'liq bo'lgan tarixiy hayotning shakllanishlari bilan bog'liq va vositachilik qilgan; ijtimoiy-tarixiy voqelikda amal qiladigan qadriyatlar va ma'nolar bor. Bunday nazari bilish va amaliy hayot o'rtasidagi munosabatlarning ushbu kontekstini tabiiy ilmiy tadqiqotlar o'tkazadigan darajada sublimatsiya qilish yoki yo'q qilish imkoniyatisiz nazarda tutadi va tushuntiradi, chunki ularning amaliyoti va maqsadi "yakka paydo bo'lishning tarixiy namoyishi" deb biladi Diltey.

2.3. Dilteyda Germenevtik Usul O'laroq "Ma'no"

Diltey tin (ruhsal) olamini ma'no olami deb xesoblaydi. Chunki ma'no yol'giz tin (ruhsal) olamni ko'rsatgan bir termin. Diltey bir narsani man'nosini tushinabilshning ozini faqatgina ruhsal olam bilan bog'liq emasligini aksincha insonning butun hayoti, butun dunyo bilan bog'liq ekanligini bildirgan. Dilteyni bu tushunchaga suruklagan narsa tabiat bilimlaridagi pragmatist yo'nalishi tetiklagan pozitivizm bo'lgan. Diltey tin bilimlaridagi ob'ekt va mavzu orasidagi masala bilan tabiyat bilimlaridagi ob'ekt va mavzu orasidagi farqlarning ongiga yetib borolmasak pozitivizmning yagona otoritaryasidan qurtilaolmasligmizi bildirip, tin bilimlarining metodologiyalik tomondan bu xususui o'rnını ko'rsatabilish uchun harakat qilgan. Diltey tin bilimlarini tabiyat bilimlaridan mustaqil bir joyga joylashtirabilish harakatida bo'lgan. Chunki manaviy dunyo tabiyattan mustaqil ravishda insonlar tomonidan yaratilgan dunyodir. Diltey tarixni aqtargan kishinigning ayni zamonda tarixning insho etgan kishi ekanligini ifoda etmoqda. İnsonni o'tmishi bilan bog' qurip yashashini mumkin qilgan narsa "yashamoq" orzusu bolsa kerak. İnson o'tmishiga tarixiga murojat qilib, o'tmishidagi izlaridan, tajribalaridan va boshqa yana ko'p xususiyatlardan harakat qilib bir narsani, voqealarni onglash uchun harakat qiladi (Becermen, 2004: 41).

Dilteyning "man'no" metodikasi iki bosqichga ega bo'lib bular; tushunish va sharhlash metodikalaridir. Diltey bu metodlarni tin bilimlarining metodu o'laroq qolga oladi. Diltey'ga ko'ra bir narsaning ma'nosini tushunish, o'z borligimizning subyektif chegaralarının ichidan chiqip, boshqa kishilarga oit bo'lgan ruhsal xollarni yashamoq, insoniyat dunyosini yashash bilan tushunabishtir. Tushinish har bir bosqichida bir dunyo yaratadi. Diltey o'z metodikasini rivojlantirar ekan mantıqi va opsixologiyalik bir analitik o'rniga epistemologik analiz bilan shug'ullanadi. Bu esa unga "yasham dunyosi" degan tushunchasini bu metod soyasida tamallantirabilishning yo'lini ochabildi (Becermen, 2004: 41).

Habermas'ning ifoda qilgani kabi Dilteyning "Yashamoq" deb aytgan so'zi insondagi organik, mezojiga bog'liq psixologik bir xol emas aksincha niyati, yo'nalishi bo'lgan ma'nosi vositasi bilan tushunilgan narsadir. Diltey tarix soxasini tinning o'zini davomli obyektivlashtirgan soxa deb xesoblaydi. Chunki faol bo'lgan tinning, ichkarisiga, maqsadlariga, qiymatlariga sızıp joylashgan obyektiflashgan narsalarning, organik, psixologik, sosyal va tarixiy reivojlanishlardan mustaqil ravishda ma'noga egaligi muhim (Habermas, 2003: 149). Dilteyning "yashamoq" tushunchasini uch bosqichta tushunishimiz mumkin bular; tushunish, harakat va tajriba (yashamoq).

Diltey'ga ko'ra birinchisi tushunish faoliyati, insonning ichida turgan xolatida uni o'rab olgan butun narsalar bilan bo'lgan uzuluksiz bog'ini tashkil etadi. Bu narsalar jonli bir ravishda inson zihnida jarayon etgan qayta tiklash faoliyati soyasida ma'noga erishadi. Shunday kim, bizlar bu qayta tiklash jaroyoniga qo'shilish bilan birga, ma'no yaratmoqlik jarayoniga xam qo'shilgan bo'lamiz. Chunki kognitiv bir faoliyat ayni payitta poetik bir faoliyat bo'lib sanaladi. Shuning uchun, poesis, ma'no yaratmoq, ma'no ishlab chiqish jarayoni bo'lib, tinning (ruhning) o'zini obyektivlashtirish jarayonidir (Habermas, 2003: 150).

Onglamoq/tushunish tin bilimlari uchun asosi tamalini tashkil qiladi. Faqat tin bilimlarining tamallanishi borasida esa bilimquram, mantıqiy va metodik analizlar esa tin bilimlarining asosi vazifasi bo'lib sanaladi (Diltey, 2011: 116). Bu tushunchaga ko'ra birinchidan har bir insonning individual tushunchasi bor va bir inson bir narsani tushunganda aslida o'zining subyektifligidan xabar beradi. İkkinchidan biron bir asarning ma'nosi esa, yakkalikdan butunga, yaxlitlikdan yana yakkalikka erishish bilan, uning yozuvchisining individualligi va u joylashgan yozma asarlarning kontekstiga uyg'unlashishi bilan o'rtaga chiqadi.Uchinchidan esa har bir ruhiy holatni biz faqat tashqi sabablarga ko'ra tushunamiz. Ushbu muammolarning barchasida quyidagi ko'rinish paydo

bo'ladi: Axborot nazariy muammosi hamma joyda bir xil va u shunday: Eksperimentdan umumiy ma'lumotni ajratib olish. Ammo bu erda (tabiiy eksperimentlardan farqli o'laroq) ruhiy eksperimentlarning o'ziga xos tabiati shartlari asosida umumiy ma'lumotlar olinadi. Shu nuqtai nazardan, struktura - bu ruhiy hayotda yashaydigan va taniqli bo'lgan tuzilmadan iborat (Diltey, 2011: 118).

Ushbu ko'rinishdan harakat qilsak, Diltey'ga ko'ra bir narsani tushunabilish o'z borlig'imizning subyektif çegaralarini va o'z imkoniyatlarimizni oshish bilan boshqa insonlarga oit ruhiy xollarni ichtan yashayabilishtir. Lakin ma'no ma'noli va davomli bo'lgan tarixiy bilgining tamalida yotadi va bu insonga berilgan shahsiy bilnch darajasining rivojlanishi bilan birga o'zgargan xususiyatga ega. Bu rivojlanish esa tushunabilish "ma'no" ning oldida turgan "yasham" dunyosiga oittir (Becermen, 2004: 46).

Bu muammo hayot va ifoda o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqish orqali hal qilinadi. Biz ruhiy ob'ektlarni ichki tajriba orqali ularning tajribalaridan anglaymiz. Biroq, Dilteyning so'zlariga ko'ra, tushunish amalga oshishi uchun hayotning ifodasi bo'lishi kerak. Tajriba faqat "men" ga o'sha hayotning tashqi ko'rinishi orqali taqdim etiladi. Hayotning tashqi ko'rinishi hayotning ifodasidir. Tushunish bu bayonotning natijasidir, chunki biron bir yot kimsaning biz kabi tushunishi bu iborani tushunishga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda (Bollnow, 2003: 102).

Diltey masalaga bu shakilda qayrilmog'lik bilan birga zamonida bolmasa xam keyinchalik gumanitar fanlarida davom etip kelgan bir qancha problemalarni bartaraf qilinishiga katta hissa qo'shdi. Diltey'dan so'ngra inson bilimlarida muammo bo'lgan kishilik va omma aloqasi, shahsning zixniy tushunchasiga xam tarihiy xam da ommaviy vokealarning ko'rsatgan tasirlarini to'g'ri sharxlash rivojlandi deb aytaolamiz. Diltey, harakat qilgan qidiruvlarida tarihiy aqlning chegaralarini ko'rsatmoq bilan birga, inson (gumanitarniy) bilimlaridagi bilgining (ma'lumotlarning) imkoniyatini belgilashni o'ziga maqsad qilip oladi. Qant'da fenomenlarning bilgisining belgili bir kategoriyalari bor. Tabiat haqidagi bilgilarimiz (ma'lumotlarimiz) narsalarning tajribalarini tartipga solgan tushunchaning yoki yana ham to'g'risi, onglamoqning kategoriyalari soyasida qo'lga olinadi. Aynan sof aqlning kategoriyalari kabi, Diltey ham shu kategoriyalarini qo'llanmoqlikni mumkin ekanligini aytadi. 1) Qisim va butun katego'riyasi, 2) sabab va maqsad, 3) kuch va quvvat, 4) ich va tashqi kategoriyasi 5) qadir-qiymat kategoriyasi. Diltey, tarihiy bilginin imkoniyatini va chegaralarini qidirar ekan, falsafa, san'at, xuquq, va ekonomika bilimlaridagi metodika problemalarini chechuv uchun harakat qilgan. Bu esa inson bilimlarini faqatgina omma va kültür bilimlari deb hisoblash no'tog'ri. Chunki gumanitar fanlari yuqorida ataganimiz bir qator ilimlarni o'z ichiga olgan. Shuning uchun ham bu bilimlarning fenomen bilan uning aniqlangan bir tarihi orasidagi aloqasini korabilish lozim. Bu tushunchalarga yahshilab etibor berganimizda asosan ma'no uslubining ham asosi vazifasi bu aloqalardan chiqariladigon ma'noning o'rni juda ham kerakli masaladir. Chunki insoniyatning, jamiyatlarning yoki biron bir millatning madaniyatining o'z individlariga berishni xoxlagan ma'noning aniqlanishi bu yo'l bilan mumkin. Halklarning ijtimoiy tomondan rivojlangan darajasi xam shunga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Diltey ma'noning ochik oydin o'rtaga chiqishida tilga alohida ahamiyat beradi. Til har bir tarixiy davr o'zini namoyon qiladigan va ob'ektiv bo'lgan muhitdir. Har bir tarixiy davr ma'lum qadriyatlarga ega. Ushbu davrni belgilab qo'ygan qiymatlarni tilda o'sha davr ma'nolarining tashuvchisi sifatida aniqlash mumkin. Shuning uchun ruhiy fanlarning asosiy materiali har doim tilshunoslik mahsuli sifatida yozma asarlardir.

Diltey'ga ko'ra, filologiya - bu yakka tartibdagi bilimlarga yo'naltirilgan faoliyat doirasi bo'lib, tarixiylik, yaxlitlik, yakkalikni bilish, umumiy bilish kabi tushunchalardagi qiyinchiliklarni filologiya fanining rivojlanish jarayonlari bilan engish mumkin. Germenevtika va filologiya o'rtasidagi munosabatlarning tug'ilgan joyi yozma matnlardir. Germenevtika insonning ruhiy ijodlarini tushunishga harakat qilganda sobit ruhiy hodisalarni ishlatadi. Germenevtika bu yozma matnlar orqali ruhiy hodisalarni tushunishga ularga ma'no berishga harakat qiladi. Yozma matnlarni tadqiq qiladigan va sharhlaydigan fan sifatida filologiya matnni tushunish imkoniyatini berib, germenevtika uchun zarur ma'lumotlar va asoslarni tayyorlaydi (Adugit, 2005: 255).

Dilteyning fikriga ko'ra, tarixiy sohada germenevtik, romantik o'zboshimchalik va skeptik subyektivlikning doimiy aralashuvlariga qarshi tushuntirishning umumiy asosliligini nazariy jihatdan asoslash kerak; tarixning barcha ishonchliligi bunga bog'liq. Biron bir asarning ma'nosini tushuntirishning eng tog'ri yoli germenevtik ma'no uslubida amalga oshirlgandagina muvofaqiyatli bolishi mumkin. Mana, ma'naviy fan tabiatshunoslik tushunchalariga emas, balki tarixiy ijtimoiy voqelikka mos keladigan tushunchalarga taalluqli bo'lgan tushuncha turi bu uslub bilan bog'liq ekanligini bildirmoqda Diltey. Diltey'ga ko'ra, tarixiylik yashash tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Bu hayotni umumiy tushuntirish emas, balki hikoya qilish mavzusi bo'lishi mumkin.

Diltey, biz nisbiylikka tushishdan qo'rqib, umuman hayotning o'zaro bog'liqligini tushunmasligimiz mumkinligini himoya qiladi. Biroq, tarix rivojlanib borgan sari ular o'rtasida uzluksizlik aloqalarini o'rnatish qiyinlashadi. Barcha munosabatlarni birlashtiradigan element nima? Diltey bu savolga o'tmishdagi hayot imkoniyatlarini ko'rish va kelajakka nima bo'lishini o'ylab javob beradi. Demak, benuqsonlik bu narsa emas; ammo, biz ilgari olgan ma'lumotlarni inson hayotining imkoniyatlari sifatida ko'rishimiz mumkin va bu imkoniyatlarga bog'liq holda nima bo'lishi mumkinligini bashorat qilishimiz mumkin. Tabiiy fanlardan gumanitar fanlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yaxlitlik tushunchasini o'rnatib bo'lmaydi. Qisqacha aytganda, insonning shaxsiy hayoti bilan bog'liq uzluksizlik tajribasidan boshlab, biron bir mavzuga duch kelmagan tarixiy uzluksizlikni o'rnatish insoniyat fanlarining asosiy muammosidir (Bilen, 2007: 106).

Germenevtik ma'no uslubi haqida gap ketganda, bu uslub tushunadigan odam va shaxs sifatida nimani tushunish

kerakligini, boshqacha qilib aytganda, odamning ichki hayotiga asoslangan hayot dunyosi hodisalarini tushunish epistemologik muammolarga javob beradi, ammo germenevtika ma'no berishda muhim joy oladi.

Diltey tarixning o'zida emas, balki unga nisbatan ontologik ongga amal qilish orqali tushunish, ma'no berish modelini taklif qiladi. Biroq, predmetning tarixiy ufqlarini hisobga oladigan bunday tushunish modelidagi qiyinchiliklarni oldindan aytish mumkin. Diltey uchun bu tushunish modeli joy almashishi yoki boshqacha aytganda, tarixiy ufqning o'zgarishi bilan mumkin bo'lsa-da, shaxsning o'zi belgilagan chegara bunga yo'l qo'ymaydi. Va bu chegara sub'ektning o'ziga xos tarixiy pozitsiyasini aniqlab, tushunish jarayonini buzadi. Bu tarixiylik nuqtai nazarini o'zgartirishni taqozo etadi. Tarixiylikni shart sifatida emas, balki zamin sifatida tushunish tarixiy ufqning o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi. Garchi Diltey tushunish va tarixiy ufq o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri tushungan bo'lsa ham, u bu munosabatlarning ontologik sharoitlariga e'tibor bermadi. Agar germenevtik tushunish - bu harakatchanlik bo'lsa, biz to'xtashimiz va ketishimizdan oldin, bu harakatga imkon beradigan zamin aniqlanishi kerak. Bizning qarashimizni harakatning o'zi emas, balki harakat sodir bo'ladigan joyga qaratish, Diltey tushunishning yana bir sharti sifatida ifodalagan hayotiy iboralarning doimiyligi va barqarorligining mumkin emasligini ko'rsatadi. Hayotning namoyon bo'lishi ular tashqilashtirilgan tarixiy nuqtaga tushmaydi. Shuning uchun, uni tushunishga harakat qilgan shaxs, uni hozirgi holatiga mahkamlaydigan va u erda o'zini aks ettiradigan tirnoqlardan xalos bo'lolmaydi. Hayotning iborasini tushunarli qiladigan narsa bu hayot qurilgan tarixiylikdir (İşbir, 2011: 147).

3. Xulosa

Diltey falsafasi uchun fanlarni farqlash asosiy nuqtadir. Xuddi individual hayotning haqiqati ham berilgan shaxsiy hayotiy tajriba (Erlebnis) insonning manbai va vazifasidir ta'sirlar, qiziqishlar va amaliy hayotning me'yorlari va qadriyatlari, tabiiy hodisalarning haqiqati nazariy jihatdan shakllangan tajriba (Erfahrung) bilimlarning kognitiv qurilishi uchun asos (Erkenntnis) tabiiy fanlar (Naturwissenschaften) orqali murojaat qilinadi. Epistemologik, talqiniy va amaliy jihatdan hayotiy tajriba, bu uning tarkibiy, talqiniy va kognitivligini hisobga olgan holda fe'l-atvorni nodavlat "xayrixoh tushuncha" ga kamaytirmaslik kerak (Nelson, 2019: 10).

Xulosa qilib aytishimiz mumkin ki, gumanitar fanlarida u tushunish imkoniyatlari va chegaralarini namoyish qilish uchun germenevtik, falsafiy nazariya bo'lishi kerak. Tushunish imkoniyatlari va chegaralarini aniqlashning tizimli ifodasi germenevtik usul yoki gumanitar fanlarning mahsus usulini shakllantirishdir. Diltey germenevtika usulini aniqlashda tarixni qabul qiladi. Chunki odamlar o'tmishda boshdan kechirgan va yaratgan narsalariga qaytish imkoniga ega. Bu hayot tajribasini takrorlash orqali olingan tajriba. Shuning uchun tarix gumanitar fanlari uchun umumiy ma'noda eksperimental soxadir. Agar tabiiy fanlar tabiiy tarixni hisobga olgan holda o'z usullarini ishlab chiqqan bo'lsa; gumanitar fanlar ham germenevtika yoki tushunish tarixini hisobga olgan holda o'z uslublarini ishlab chiqishi kerak. Gumanitar fanining predmeti va usuli bu inson hayotining yozma va qat'iy ifodalarini tushunishdir va bu usul germenevtik tushunishdir. Dilteyda bu usuldagi eng kuchli o'rinni "ma'no" uslubi olmoqda. Chunki germenevtikaning bu ma'no usuli tushunishga asoslangan. Uning so'zlariga ko'ra, tushunmaslik tarix yoki tildan emas, bu insonning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan muammo.

Dilteyning germenevtik tushunchasida ma'no berish yoki tushunishning iki omili bor. boshlang'ich va yuksak darajada tushunabilish, ma'no berish. Boshlang'ich (elementar) darajada tushunish, Dilteyning ifodasiga ko'ra "Bunday elementar shakl bilan, men yakka tartibda olib tashlashning ma'nosini tushunmoqchiman." Bu darajada tuhsunush inson ob'ektiv ruh ila atrof muhitidagi narsalar bilan qurgan munosabatida yuzaga kelmoqda. Yuksak darajada tushunish," tushunishning yuksak formlari", songradan elementar tushunishning ustida insho etilgan bo'lib bu darajada farqli tashqilashtirishlaring to'plamidan harakatla "yasham bog'lamlarining" butununu onglamoq asostir. Dilteyning fikricha elementar tushunish inson hayotida har doim shupha va belirsizliklarga olib kelishi mumkin, bundan qochib bo'lmaydi. Faqat elementar tushunishdagi supha va belirsiliklar insonni yashagan tajribalari ustida bir butun o'laroq tushunishga olib boradi. Bu yerda tarixning, yozma asarlarning, qurulgan binolarning va yana ko'p omillarning muhim roli bor. Yuksak darajada tushunishta inson o'z tarixi, yahsagan atrof muhitidagi voqealar bilan qurgan bir butun munosabat qurabilmoqda. Manaviyat, madaniyat dep aytilgan qadriyatlarning qiymati bu darajada oydinlikka chiqmoqda.

Mashhur Hristiyan olimi Sn. Agustinus'ning aytgani kabi, otgan tarih, hozirgi kunning garantiyasi bo'lgani kabi, xozirgi kun bo'lsa kelajakning garantiyasi bolip hisoblanadi. Diltey'ning *"hayot dunyosi"* deb aytgan masala ham bu ma'noda gumanitar fanlarning temasi bolip hisoblanadi. Diltey'ning (Erlebnis) o'laroq ifoda qilgan so'zi bu yerda o'zgacha axamiyat kozongan. Bu masalaning o'zi esa qisqa qilip aytganda bir individ (Shaxsning) yashagan tuprog'ida, kelib ketguvchi bir shaxis emas, bir shaxsiyatga, ongli bir ma'naviyatga ega bo'lgan insonning prototipidir. Bu Heideger'ning (Dasein) deb aytgan dunyoda bor bolish uchun kurashgan bir kishining prototipidir. O'z tuprog'ini, madaniyatini, o'rf odatlarini bilgan ongli kishidan xech bir vaqit zarar kelmasa kerak (Muminoğlu, 2018: 834).

Natija o'laroq Dilteyning ma'no berish, tushunish problemasini qo'lga olayotib tilning ahamiyatiga etibor bermoq bilan birga bu masalani epistomologiyalik zaminda tamallantirishga harakat qilganligni ko'rishimiz mumkin. Dilteyning bu borada qilgan en muhim harakatini nisbiylik muammosini yengish harakati deb hisoblay olamiz.

Kaynakça

Bilen, O. (2007). *Çağdaş Yorumbilim Kuramları.* İstanbul: Şule Yayınları.

Bollnow, F. O. (2003). *İfade ve Anlama*, (çev. & Ed. Doğan Özlem) Hermeneutik Üzerine Yazılar,

Doğan Özlemin Bütün Çevirileri-3 İstanbul: İnkilab.

Dilthey, W. (1986). The Hermeneutics of The Human Sciences. In: *The Hermeneutics Reader: Texts of the German Tradition from the Enlightenment to the Present*, (Ed.) Kurt Mueller- Vollmer, (148-164). New York: B. Blackwell.

Dilthey, W. (1999*) Hermeneutik ve Tin Bilimleri*. (çev. D. Özlem). İstanbul: Paradigma Yayınları,

Dilthey, W. (2011). *Hermeneutik ve Tin Bilimleri*, Çeviren, Doğan Özlem, İstanbul: Notos Kitap.

Dilthey, W. (2004). *Alman ruh tarihine dair tetkikler*, Çev. Hasan Cemil, İstanbul: YZY.

Eric S. N. (2008). "Interpreting practice: Dilthey, epistemology, and the hermeneutics of historical life", *Idealistic Studies*, Volume 38, Issues 1–2. pp 105-122.

Eric S. N. (2019). *Interpretıng Dılthey Critical Essays, "Introduction: Wilhelm Dilthey in Context"*, United Kingdom: Cambridge University Press.

Habermas J. (2003), *"Dilthey'in Anlama Kuramı: Ben-Özdeşliği ve Dilsel İletişim",* Çeviren Doğan Özlem, *Hermeneutik Üzerine Yazılar, Doğan Özlemin Bütün Çevirileri-3* İstanbul: İnkilab.

İsbir, E. (2011). "W. Dilthey'da Hermeneutiğin Epistemolojik Sınırları" , *Kaygı Dergisi,* 2011/17, s. 147.

Muminoğlu K. (2018). "Germenevtika Ilmining Kelib Chiqishi va Rivojlanishi", *Anemon Muş Alparslan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi* 2018 6 (6) 831–838

Tatar, B. (2016). *3 Derste Hermenötik*, İstanbul: Vadi Yayınları.

Yavuz Adugit (2005) "Dilthey'de Tin Bilimlerinin Temellendirilmesi ve Sorunları", *Hacettepe Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, Cilt: 22 / Say›: 2 / ss. 245-260